


**Tasdiqlayman:**

MCHJ «KAMALAK GRAND-GROUP»

Direktori

Maraximov F.X

«\_\_\_» 2022



Avtomobil extiyot qismi xisoblangan ovoz so'ndirgich ishlar chiqarish ucun Calcium carbonate light, Syderolife, silica, Zinc Oxide, Carbon Black, Barium Sulfate, va Teen-ager sotib olish

TANLOV HUJJATLARI

## **MUNDARIJA**

Andijon shahar 2022

1. Tanlovishtirokchilariga ko'rsatmalar.
2. Tanlovning texnik qismi.
3. Tanlovning narx qismi.
4. Shartnoma loyixasi.

## 1. TANLOV ISHTIROKCHILARIGA KO'RSATMALAR

1	<b>Umumiy tartib</b>	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rnlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi «Loyihalodi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №PF-3550 sonli (keyingi o'rnlarda – «Farmon») farmoni xamda «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rnlarda – «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Tanlov predmeti: <b>Avtomobil extiyot qismi xisoblangan ovoz so'ndirgich ishlar chiqarish ucun Calcium carbonate light, Syderolife, silica, Zinc Oxide, Carbon Black, Barium Sulfate, va Teen-ager sotib olish</b>
		1.3	Tanloving minimal qiymati va valyutasi tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olinadigan tovar (xizmat, ish) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Xarid komissiyasining majlislari online tarzda yoki, videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin
2	<b>Tanlov Tashkilotchisi</b>	2.1	Tanlov buyurtmachisi «KAMALAK GRAND-GROUP» MCHJ (keyingi o'rnlarda - «buyurtmachi»). Yuridik manzili: Andijon viloyati, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 73 «Buyurtmachi» Rekvizitlari: MFO 00083, STIR 306763383 x/r 20208000605129036001 Andijon sh., chet el kapitali ishtirokidagi "HAMKORBANK" AT bankining bosh ofisi
		2.2	Buyurtmachi bilan bog'lanish : Xarid bolim bosh mutahasisi <i>email: ilhomjon.erkinov@uzkgg.uz</i> тел: +998 93 062 54 68 Maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.
		2.3	Tanlov komissiyasi ishchi organi «KAMALAK GRAND-GROUP» МЧЖ Xarid bo'limi xisoblanadi (keyingi o'rnlarda - «Ishchi organ»).
		2.4	Shartnoma egasi: KAMALAK GRAND-GROUP» MCHJ
		2.5	Tanlov xujjatlari qonun xujjatlari asosida shakllangan besh kishilik komissiya a'zolari tomonidan baxolanadi.
3	<b>Tanlov qatnashchilar</b>	3.1	Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari qatnashish xuquqiga ega. Tanlov xujjatining 4.2 bandida sanab o'tilgan talablar budan mustasno.
4	<b>Tanlov o'tkazish tartibi</b>	4.1	Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilar: a) Qonun xujjatlari va tanlov xujjatlari talablari xamda shartlariga muvofiq tijroiy taklifini yuborish.

		4.2	Tanlovda qatnashish uchun quyidagi qatnashchilarga ruxsat etilmaydi:
			Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlik mavjudligi, bankrotlik yoqasida turganligi, offshor hududda hisob raqamlari mavjudligi, o'zaro affillangan shaxslar borligi yoki insofsiz ijrochilar yagona ro'yhatiga kirib qolganligi sababli qayta tashkil etilayotgan, tugatish va bankrotlik xolatlarida turgan tashkilotlar;
			Buyurtmachilar bilan sudlashish jarayonida yoki arbitraj sudida muxokamada bo'lган qatnashchilar;
			Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida turuvchi qatnashchilar;
			Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha qarzdorligi mavjudlar;
			imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va / yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmagan shtatlar yoki hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlari bo'lган (offshor hududlar);
			O'zaro affillangan shaxslar tanlovda birga ishtirok etishi mumkin emas
		4.3	Buyurtmachi quyidagi holatlarda ishtirokchini tanlovda qatnashishni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega: ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa xarakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;
			ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.
5	<b>Tanlov tili, o'lchov birligi.</b>	5.1	Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtasida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlatalganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.
			Taklif umumiyligini qabul qilingan o'lchov tizimidan foydalanishi kerak.
6	<b>Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi</b>	6.1	Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytiga joylaydi.
		6.2	Tanlov ishtirokchisi:

			<p>Yakka tartibdagи tadbirkor yoki rezident faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.</p>
			<p>Portalga joylangan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyligi va ishonchliligi uchun javobgardir;</p>
			<p>faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;</p>
			<p>takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish.</p>
	6.3		<p>Taklif ikki qismdan iborat:</p> <p>Texnik qism. Buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif qilinayotgan mahsulotning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak;</p> <p>Narx qismi. Tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (shu jumladan mahsulot nomi, birlik narxi, barcha solqlarni o'z ichiga olgan umumiy qiymati, to'lov shartlari, taklifning haqiqiyligi va boshqalar).</p>
	6.4		<p>Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda portalga joylash</p>
	6.5		<p>Tanlov takliflari <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a>, portalida e'lon qilingan kundan boshlab 10(o'n) kun ichida (17:00 gacha): <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> portaliga joylanadi</p>
	6.6		<p>Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 10(o'n) kun bo'lishi kerak.</p>
7	<b>Takliflarni berish muddatlari</b>	7.1	<p>Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovni qayta e'lon qilishi mumkin.</p>
		7.2	<p>Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.</p>
8	<b>Tanlov hujjalari kiritiladigan o'zgarishlar</b>	8.1	<p>Zarur bo'lganda, buyurtmachi tanlov hujjalariга o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.</p> <p>Tanlov hujjalariга o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.</p> <p>Tanlov hujjalariга o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Agar tanlov hujjalari takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjalariга o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi.</p> <p>Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.</p>

9	<b>Tanlovga takliflari baholash tartibi va mezonlari</b>	9.1	<p>Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi.</p> <p>Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.</p> <p>Komissyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi.</p> <p>Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.</p>
		9.2	<ul style="list-style-type: none"> <li>- <b>Ball usuli</b> – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narh qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.</li> <li>- <b>Eng past narh usuli</b> – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narhni taklif etgan ishtirokchini</li> </ul>
	 Перечень квалификационных /	9.3	Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarda ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.
		9.4	Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'limganligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqli.
		9.5	Tanlov hujjatlari muvvafaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlob hujjatlari moderatsiyadan muvvafaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.
		9.6	Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yi'gish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommisiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.
		9.7	Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan taklif tanlov xujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
		9.8	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa harid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
		9.10	Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining

			tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov tugashi sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
		9.11	Tanlov hujjatlarda va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomaga bajarilishi uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
		9.12	Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mayjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovovzdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.
		9.13	Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet elliq va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan amaldagi barcha turdag'i soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riliги va to'liqligi uchun javobgardir.
		9.14	--Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.
		9.16	Harid protsedurasi natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.
		9.17	Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdori ko'rsatkichlarga ega bo'limgan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.
		9.18	Tanlov hujjatlarda belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda: <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda)</li> <li>- tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past</li> </ul>

			narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.
10	<b>Tomonlarning javobgarligi va maxfiylik bajarilishi</b>  Согл о конфиден.раг	10.1	<p>O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;</li> <li>- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtaida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xatti-xarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari</li> <li>- barcha maxfiy texnik ma'lumotlar (chizmalar, standartlar va x.k) buyutmachining tijorat siri bulib, uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi.</li> <li>- Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan xolatda, va bu xolat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'laligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish xuquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini xisobga olgan xolda, Buyurtmachiga to'laligicha qoplab berishi shart.</li> <li>- Ishtirokchi, tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi xaqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi.</li> </ul>
		10.2	Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan (miqdor, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va / yoki tuzilgan shartnoma bo'yicha javobgar bo'ladi.
11	<b>Boshqa talablar</b>	11.1	Agar tanlov ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod mahsulotlarini taklif qilsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar haqida uchinchi shaxslardan fikr-mulohaza bildirishni so'rashga haqli.
		11.2	Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirish berish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.
	 Форма подачи запроса на разъяснение	11.3	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi.</li> <li>-Buyurmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.</li> </ul>

		11.4	<p>Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa;</li> <li>- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi hamma takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan holda rad etgan bo'lsa.</li> </ul>
		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
		11.6	Ishtirokchi asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.
12	<b>Shartnomani rasmiylashtirish</b>	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra, shartnoma tanlov hujjatlarida va shartnoma tuzilgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan shartlarda tuziladi.
		12.2	<p>Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon komissiya tomonidan 5 (besh) kun ichida tasdiqlangandan keyin buyurtmachi e'lonni savdoga joylashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Mening e'lonlarim" bo'limidagi jadvalning eng oxirgi "Harakat" bo'limi orqali "Savdoga joylashtirish" tugmasini bosadi.</p> <p>Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 10(o'n) kun savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng, avtomatik ravishda, eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng bayonnomani 2 (ikki) kun ichida komissiya a'zolari g'olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi.</p>
		12.3	Agar tanlov g'olib tanlov shartlari to'g'risida shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira pudratchiga o'tadi. Bunda zaxira pudratchi tanlov g'olibni taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

## **2.TEXNIK QISM**

**Spark, Jentra va Nexia R3 avtomobillarining ovoz so'ndirgich extiyot qismlarining texnik talabnomada ko'rsatilgan xom ashyolari.**

Taqdim etilgan tovarlarning miqdori va hajmi (xizmatlar, ishlar hajmi) va ular uchun xarakteristikalar (talablar).

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) "Texnik topshiriq" tanlov hujjatlari (bundan buyon matnda - TT) Texnik qismining 1-ilovasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Har bir ob'ekt bo'yicha xizmatlar (ishlar) natijalarini yetkazib berish uchun TT 2-ilovaga muvofiq hujjatlar to'plami tuzilishi kerak.

Tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish muddati (yoki jadvali).

Ish muddati shartnoma bo'yicha oldindan to'langan kundan boshlab 30 ish kuni.

**Texnik qismga 1-sonli ilova: Texnik topshiriq (TT)**

## Tanlov hujjatlarining texnik qismining 1-ilovasi

Mahsulot Ingliz tilidagi nomi	Syderolife
Texnik tavsiflari (Rus tilida)	<p>Bentonit ko'pchilik sirlarga 1% gacha qo'shilishi mumkin. Haddan tashqari ko'p miqdorda muzlash jelatinli bo'lishiga olib kelishi mumkin. Loy tanasida plastifikator sifatida foydalanilganda odatda 1-3% ishlatiladi. Bentonit ko'p miqdorda qo'llanilganda loylarning egilishiga va yorilishiga olib kelishi mumkin.</p> <p>(Бентонит можно добавлять в большинство глазурей в количестве до 1%. Чрезмерное количество может привести к тому, что глазурь станет гелеобразной. При использовании в качестве пластификатора в глиняном корпусе обычно используется 1-3%. Бентонит может вызвать коробление и растрескивание глин при использовании в больших количествах.)</p>
Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)	<p>Kolloid moddani o'z ichiga olgan vulqon kelib chiqishi juda nozik taneli plastik gil. Kichkina miqdorda plastiklashtiruvchi qo'shimcha sifatida loyda va sirlarda suspenziya va bog'lovchi vosita sifatida ishlatiladi.</p> <p>(Очень мелкозернистый пластиковая глина вулканического происхождения, содержащий коллоидное вещество. Используется в небольших количествах в качестве добавки к глинам для придания пластичности и в глазури в качестве супенсирующего и связующего агента.)</p>
Taxminiy yillik extiyoj	3 125 kg
Qadoqlash usuli (Rus tilida)	<p>25 кг в маленьком мешке Один большой мешок вмещает 40 маленьких мешков (1000 кг)</p>
Qadoq hajmi	1100x1100x700mm (L x W x H)

## Tanlov hujjatlarining texnik qismining 2-ilovasi

Mahsulot Ingliz tilidagi nomi	Calcium carbonate light 800 mesh
Texnik tavsiflari (Rus tilida)	<p>Номер товара: CAH-6080 Белизна (R457) ≥96 CaCO3% ≥98 РН 8.0-10.0 Влажность% ≤ 0.3</p>
Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)	<p>Yengil kaltsiy karbonat (cho'kma kaltsiy karbonat) kaltsiy karbonat ohaktoshidan xom ashyo sifatida kaltsiyash, parchalanish, aralashtirish, karbid, ajratish, quritish, tasniflash, sinash va qadoqlash orqali tayyorlanadi.</p> <p>(Легкий карбонат кальция (осажденный карбонат кальция) изготавливается из известняка карбоната кальция в качестве сырья путем кальцинирования, разложения, смешивания, карбида, разделения, сушки, классификации, тестирования и упаковки.)</p>
Taxminiy yillik extiyoj	9 300 kg
Qadoqlash usuli (Rus tilida)	<p>25 кг в маленьком мешке Один большой мешок вмещает 40 маленьких мешков (1000 кг)</p>
Qadoq hajmi	1100x1100x1100mm (L x W x H)

### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 3-ilovasi

<b>Mahsulot Ingliz tilidagi nomi</b>	Carbon Black
Texnik tavsiflari (Rus tilida)	Свойство Типичное значение Единица Метод испытания STSA 39 м2 / г ASTM D6556 Число адсорбции йода 43 мг / г ASTM D1510 OAN 121 см3 / 100 г ASTM D2414 OAN Сжатая прочность оттенка Содержание золы 85 58 0,75 см3 / 100 г% ITRB% ASTM D3493 ASTM D3265 ASTM D1506 Тепловые потери 1,5% ASTM D1509
Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)	Orient Black N550 - печь смягкими частицами Carbon Black для различных применений в секторе обработки резины.
Taxminiy yillik extiyoj	800 Kg
Qadoqlash usuli (Rus tilida)	25 кг в маленьком мешке Один поддон вмещает 40 небольших мешков (1000 кг)
Qadoq hajmi	1100x1100x1800mm (L x W x H)

### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 4-ilovasi

<b>Mahsulot Ingliz tilidagi nomi</b>	Zinc Oxide
Texnik tavsiflari (Rus tilida)	Formulasi: ZnO Molar massasi: 81,38 g/mol Erish harorati: 1 975 °C Zichligi: 5,61 g/cm³ Qaynash harorati: 2 360 °C ChemSpider identifikatori: 14122
Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)	ZnO - II-VI yarimo'tkazgichlar guruhibining keng oraliqli yarim o'tkazgichidir. Kislorod vakansiyalari yoki oraliq sink atomlari bo'lgan yarimo'tkazgichning ichki dopingi n-turi. (ZnO - широкозонный полупроводник группы полупроводников II-VI. Собственное легирование полупроводника кислородными вакансиями или межузельными атомами цинка является n-типа.)
Taxminiy yillik extiyoj	250 Kg
Qadoqlash usuli (Rus tilida)	25 кг в маленьком мешке Один поддон вмещает 40 небольших мешков (1000 кг)
Qadoq hajmi	1100x1100x1700mm (L x W x H)

### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 5-ilovasi

<b>Mahsulot Ingliz tilidagi nomi</b>	Barium Sulfate				
<b>Texnik tavsiflari (Rus tilida)</b>	Pecific Gravity	4.35~4.40			
	Particle Size( $\mu\text{m}$ )	D50 $7.5 \pm 1$ D97 $\leq 28$			
	Whiteness (L Value)	94			
<b>Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)</b>	<p>Bariy sulfat - BaSO43 kimyoviy formulasiga ega noorganik birikma. Bariy sulfat tabiiy ravishda mineral barit sifatida uchraydi. Bundan tashqari, u turli ishlab chiqarish dasturlarida qo'llaniladi va radiatsiya qalqoni sifatida og'ir beton bilan aralashtiriladi.</p> <p>(Сульфат бария - неорганическое соединение с химической формулой BaSO43.</p> <p>Сульфат бария встречается в природе как минеральный барит. Он также используется в различных производственных приложениях и смешивается с тяжелым бетоном в качестве защиты от излучения).</p>				
<b>Taxminiyl yillik extiyoj</b>	8075 Kg				
<b>Qadoqlash usuli (Rus tilida)</b>	<p>25 кг в маленьком мешке</p> <p>40 мешков на одном поддоне (1000 кг)</p>				
<b>Qadoq hajmi</b>	1100x1100x600mm(L x W x H)				

### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 6-ilovasi

<b>Mahsulot Ingliz tilidagi nomi</b>	Teen-ager		
<b>Texnik tavsiflari (Rus tilida)</b>	Флок-порошок (flock powder) в соответствии со стандартами GMW14168 (0,5-0,7mm in length, 3-6 denier, density 175/mm <sup>2</sup> min.)		
<b>Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)</b>	<p>Точка плавления- <math>\geq 105,0^{\circ}\text{C}</math></p> <p>Убыток от высыхания <math>\leq 0,20\%</math></p> <p>Содержание золы. <math>\leq 0,20\%</math></p>		
<b>Taxminiyl yillik extiyoj</b>	2 350 Kg		
<b>Qadoqlash usuli (Rus tilida)</b>	<p>25 кг в маленьком мешке</p> <p>Один поддон вмещает 40 небольших мешков (1000 кг)</p>		
<b>Qadoq hajmi</b>	1100x1100x1600mm (L x W x H)		

### Tanlov hujjatlarining texnik qismining 7-ilovasi

Mahsulot Ingliz tilidagi nomi	Silica 200
Texnik tavsiflari (Rus tilida)	КОЛИЧЕСТВО CAS: 7631-86-9 МОЛЕКУЛЯРНАЯ ФОРМУЛА: SiO <sub>2</sub> МОЛЕКУЛЯРНЫЙ ВЕС: 60,08 НОМЕР ЕС: 231-545-4 НОМЕР В ЛЕЯХ: MFCD00011232
Texnik belgilari (maqsad) (Rus tilida)	Kremniy dioksidining kimyoviy birikmasi, kremniy dioksidi (lotincha silxdan) kremniy oksidi bo'lib, SiO <sub>2</sub> kimyoviy formulasiga ega bo'lib, o'rtacha teshik hajmi 60 Å va zarracha hajmi 63-200 mkm. (Silica, химическое соединение диоксида кремния, также известное как диоксид кремния (от латинского silx), представляет собой оксид кремния с химической формулой SiO <sub>2</sub> со средним размером пор 60 Å и размером частиц 63-200 мкм).
Taxminiy yillik extiyoj	360 Kg
Qadoqlash usuli (Rus tilida)	10 кг в маленьком мешке Один поддон вмещает 20 небольших мешков (200 кг)
Qadoq hajmi	1100x1100x2200mm (L x W x H)